

**SUYAK YEMIRILISHI KASALLIKLARINING HOZIRGI KUNDAGI  
DOLZARBLIGI.**

**Anarova Shahzoda Amanbayevna**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori

**Omonov Sarvar Abror o'g'li**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistr talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu tezis suyak yemirilishi kasalliklarining zamonaviy tibbiyotdagi dolzarbligini ko'rib chiqadi. Aholi yoshining ortishi va turmush tarzining o'zgarishi bu kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda. Shu sababga ko'ra suyak yemirilishi kasalliklari dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Tezisdagi suyak yemirilishi kasalliklarining epidemiologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, dunyo bo'yicha statistikalar taqdim etilgan. Shuningdek, profilaktik choralarining ahamiyati va suyak salomatligini saqlash uchun tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** suyak yemirilishi, osteoporoz, osteoartroz, suyak mineral zichligi, suyak to'qimasi.

Suyak yemirilishi kasalliklari zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ularning keng tarqalishi va og'ir asoratlari butun dunyo sog'liqni saqlash tizimini oldiga muhim vazifalar qo'ymoqda. So'nggi yillarda ushbu patologiyalar bilan kasallanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu holat, bir tomondan, tibbiy diagnostika usullarining takomillashuvi natijasida kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, dunyo aholisining qarishi va turmush tarzining o'zgarishi kabi obyektiv omillar bilan belgilanadi.

Zamonaviy tibbiyotda ushbu kasalliklarni erta tashxislash, rivojlanishini oldini olish va samarali davolash uslublarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, suyak mineral zichligini (BMD-Bone Mineral Density) aniqlovchi innovatsion texnologiyalar, gormonal va parhez terapiyalari, shuningdek, profilaktika va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Suyak yemirilishi kasalliklari guruhiga osteoporoz, osteoartroz, osteomalatsiya, paget kasalligi va boshqa bir qator kasalliklar kiradi. Ushbu kasalliklar suyak to'qimasining strukturasi va funktsional xususiyatlarining turli darajadagi buzilishlari bilan xarakterlanadi. Suyak to'qimasidagi metabolik jarayonlar muvozanatining buzilishi suyak massasining kamayishi, uning mikroarxitektonikasining buzilishi va natijada suyaklarning mo'rtlashishi va sinishlarga moyillikning oshishiga olib keladi. Suyak yemirilishi kasalliklarining xavfli va keng tarqalgan 2 ta turi bor, bu kasalliklar osteoporoz va osteartroz hisoblanadi.

Osteoporoz – bu suyak zichligi pasayishi va suyak to'qimasining yupqalashuvi bilan bog'liq surunkali kasallikdir. Suyaklar doimiy ravishda yangilanib, kuch va zichlikni saqlash uchun o'z-o'zini yangilash xususiyatiga ega. Bu jarayon ikki turdagi hujayralar – osteoblastlar va osteoklastlar orqali amalga oshadi. Osteoblastlar suyak to'qimasini hosil qiluvchi hujayralar bo'lib, osteoklastlar esa suyak to'qimasini parchalab, yangilanish jarayonini ta'minlaydi. Suyak yemirilishi jarayonida osteoklastlarning faolligi oshib ketadi va bu jarayon suyak zichligining kamayishiga olib keladi.

Optimal suyak mineral zichligiga erishish va uni butun hayot davomida saqlab qolish, osteoporozdan himoyalashning asosiy strategiyasi hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda bolalik va o'smirlilik davrida maksimal suyak massasining shakllanishiga erishish muhimdir. Osteoporoz, o'z tabiatiga ko'ra, jismoniy cheklanishlar, og'riq va boshqa noqulayliklarga olib kelishi mumkin. Bu esa bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi, ularning ijtimoiy faolligini cheklaydi va ko'pincha mustaqil harakatlanish qobiliyatini yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, suyak sinishidan so'ng suyak to'qimasi qayta tiklanish uchun uzoq muddat talab qiladi va bunday holatlarda bemor to'liq yaxshi bo'lmasligi ham mumkin. Shu bois, osteoporoz nafaqat individual sog'liq muammosi, balki xalqaro miqyosda ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Suyak yemirilishi kasalliklarining tibbiy-ijtimoiy ahamiyati nafaqat ularning keng tarqalishi, balki ular keltirib chiqaradigan og'ir asoratlar, nogironlik darajasining yuqoriligi va bemorlarning hayot sifatining sezilarli darajada pasayishi bilan ham belgilanadi. Osteoporoz tufayli kelib chiqadigan son suyagining sinishlari 20% hollarda o'lim bilan yakunlanadi, 50% hollarda esa nogironlikka olib keladi. Taxminan 50 va undan katta

yoshdagi ayollarning 30 foizi va erkaklarning 20 foizi osteoporoz bilan bog'liq sinishlarni boshdan kechirishadi.

Osteoartroz – bu bo'g'imlardagi qo'shimcha to'qimalarning asta-sekin yemirilishi va deformatsiyasiga olib keladigan surunkali degenerativ kasallikdir. Bu dunyoda eng keng tarqalgan bo'g'im kasalligi bo'lib, ayniqsa 50 yoshdan keyingi odamlarda uchraydi. Osteoartroz xavfi yosh ortgan sari ortib boradi. Kasallik asosan tizza, son suyaklari, qo'l barmoqlari va umurtqa pog'onasiga ta'sir qiladi.

Global miqyosda suyak yemirilishi kasalliklarining tarqalishi yuqori darajaga yetdi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, faqatgina osteoporoz bilan dunyoda taxminan 200 million kishi kasallangan. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, har uchinchi ayol va 50 yoshdan oshgan har beshinchi erkak hayotida osteoporotik sinishlarni boshdan kechiradi. Osteoartroz bo'yicha statistika yanada tashvishli – bu kasallik 300 milliondan ortiq insonlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo aholisini 50 yoshdan yuqorilarining 20 % qismi osteoartrozdan aziyat ko'rmoqda.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, suyak yemirilishi kasalliklari sog'liqni saqlash tizimiga katta moliyaviy zararni keltirib chiqaradi. AQShda osteoporoz va uning asaratlari bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlar yiliga 20 milliard dollardan oshadi. Yevropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 37 milliard yevrodan ortiq. Bu raqamlar osteoporozga asoslangan sinishlar bilan bog'liq davolash xarajatlari, rehabilitatsiya choralari va insonlar mehnat qobiliyatini yo'qotishi kabi iqtisodiy zararlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tibbiyotda suyak yemirilishi kasalliklarini tashxislash, davolash va oldini olish usullari sezilarli darajada takomillashtirilgan bo'lsada, ushbu patologiyalar bilan samarali kurashish uchun ko'p tarmoqli yondashuv va global strategiyalar talab etiladi. Erta tashxislash, xavf omillarini o'z vaqtida aniqlash, adekvat farmakoterapiya va rehabilitatsiya choralari suyak yemirilishi kasalliklarining salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Shuning uchun ham suyak yemirilishi kasalliklariga erta tashxis qo'yadigan dastur ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Bu tezisning maqsadi suyak yemirilishi kasalliklarining zamonaviy tibbiyotdagi dolzarbligini aniqlash, ularning epidemiologiyasi, klinik-diagnostik xususiyatlarini o'rganish va profilaktik choralarning zamonaviy usullarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot tibbiyot sohasidagi mutaxassislar, sog'liqni saqlash tashkilotlari uchun suyak yemirilishi kasalliklarining muhimligini oshirish, shuningdek ushbu patologiyalarni samarali boshqarish bo'yicha yangi bilim va yondashuvlarni taqdim etishga qaratilgan.

### **Xulosa**

Suyak yemirilishi kasalliklari sog'liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ko'plab insonlarga aziyat yetkazmoqda. Suyak yemirilishi nafaqat bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi, balki sezilarli iqtisodiy zararni ham keltirib chiqaradi. Zamonaviy diagnostika usullari va yangi avlod dori vositalari kasalliklarni boshqarishda muhim yutuqlarga olib kelgan bo'lsada, profilaktika choralari muhim ahamiyat kasb etadi. Suyak yemirilishi kasalliklarini samarali boshqarish kompleks yondashuvni, tibbiy xodimlar va jamoatchilikning birgalikdagi harakatlarini talab etadi. Erta tashxislash orqali bu kasalliklardan kelib chiqadigan salbiy alomatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

### **Adabiyotlar.**

1. B.N.Toshmamatov, Sh.S.G'ulomov, K.N.Botirov. Suyak yemirilishi kasalligi. // Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali, 2024. 172-175
2. D.Sh.Kiyamova, Sh.X.Turatov. Suyak yemirilishi (osteartroz, osteoporoz). // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 2024. 635-638
3. W.Tański, J.Kosiorowska, Ch.A.Szymańska. Osteoporosis – risk factors, pharmaceutical and non-pharmaceutical treatment. // European Review for Medical and Pharmacological Sciences, 2021. 3557-3566
4. L.Rodrigo. Osteoporosis - Recent Advances, New Perspectives and Applications. // IntechOpen, 2021. <http://dx.doi.org/10.5772/intechopen.97760>. 102 p.

5. M.S.LeBoff, S.L.Greenspan, K.L.Insogna, E.M.Lewiecki, K.G.Saag, A.J.Singer, E.S.Siris. The clinician's guide to prevention and treatment of osteoporosis. // Osteoporosis International, 2022. <https://doi.org/10.1007/s00198-021-05900-y>. 2049–2102

6. S.Özmen, S.Kurt, H.T.Timur, O.Yavuz, H.Kula, A.Y.Demir, A.Balcı. Prevalence and Risk Factors of Osteoporosis: A Cross-Sectional Study in a Tertiary Center. // Medicina, 2024. <https://doi.org/10.3390/medicina60122109>. 1-13.